

TIJORAT HUJJATLARI TILI VA UNING LEKSIKASI

K.Hatamova

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 1-bosqich doktaranti

Annotatsiya. Maqolada tijorat hujjatlari tilining lingvistik xususiyatlari tadqiq qilindi. Bugungi yangilanib borayotgan O‘zbekiston sharoitida tijorat sohasiga katta e’tibor berilayotgani tijorat hujjatlari tilining yangi terminlar bilan boyib uslubiy jihatdan konkretlashayotgani tijorat hujjatlari tili va uning lingvistikasini chuqur tadqiq e’tilish zaruratini yuzaga keltiradi. Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyot mexanizmlarini qayta qurish, korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar, firmalarning tashqi bozorlarga keng chiqishi, xorijiy sheriklar bilan birgalikda ishlab chiqarish va tijorat faoliyati olib borilishi - bularning barchasi til materialini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Kalit so‘zlar: lingvistika, iqtisodiyot mexanizmlari, lingvopragmatika, globallashuv, postindustrial jamiyat, funksional, nutqiy shtamplar.

Ma’lumki, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va ishlab chiqarish hajmining ortishi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarning kengayishi, ichki bozorda talabning ortishi bilan tijorat hujjatlari tiliga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda.

Jamiyat hayotidagi bu jarayonlarning kuchayishi tijorat hujjatlarining ijtimoiy rolini, uning tuzilishi umumiyligi va o‘ziga xos lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganishga mutaxassislarining e’tibori ortib bormoqda. Axborot globallashuvi va postindustrial jamiyatning shakllanishi sharoitida tijorat hujjatlari tilini lingvistik tadqiq qilish, o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslikni boyitish, balki savdo jarayonlarini tegishli tijorat hujjatlar bilan ta’minalash mezonlari asosiy o‘ringa chiqmoqda. Bu jihatdan tijorat hujjatlari tilini funksional uslub doirasida o‘rganish ishni samarali kechishini ta’minaydi.

Ma’lumki, har qanday funksional uslub jamiyatdagi ilmiy texnika hamda fan taraqqiyotining rivoji bilan turli xil bo‘lishi mumkin. Garchi bu funksional

uslublar ma'lum bir adabiy til doirasida ish ko'rishiga qaramay adabiy tilda mavjud barcha til vositalarini o'zida aks ettirishi imkonsiz. Bir funksional uslub til vositalarini ba'zi tomonlarini ifoda etishi va ba'zi tomonlarini umumman ifoda etmasligi ham mumkin. Shunga ko'ra har qanday funksional uslub ma'lum bir maqsad va vazifaga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, publisistik uslubni olaylik uning maqsad vazifasi shundaki, u davrning eng muhim va dolzarb masalalarini auditoriya ongiga singdirish ularning muayyan voqeа hodisaga nisbatan ijtimoiy qarashlarini shakllantirishdir.

U bu vazifani Ommaviy axborot vositalari hamda keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum bir rasmiy sahifalar orqali yozma va og'zaki adabiy nutq formasida amalga oshiradi. Shu faktorlar natijasida yaxlit publisistik uslub shakllanadi hamda adabiy til fonida boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Badiiy uslubning maqsad va vazifasi esa o'quvchiga estetik emotsiyal ta'sir qilish, hayot voqeliklarini badiiy bo'yoqdorlikda yorqin ifoda etishdan iborat. Bu uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, asarning estetik ta'sirini oshirish uchun tilning barcha leksik va gramatik vositalaridan unumli foydalanadi. Bu funksional uslubda boshqa uslublar elementidan bemalol foydalanish mumkin. Shu xususiyati bilan ham badiiy uslub keng leksik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga bugungi kunda umumiste'moldan chiqib ketgan so'zlardan ham personajlar tilida foydalanadi.

Shunga ko'ra barcha uslublar bir-biridan til vositalarini ishlatalish yuzasidan farq qiladi.

Tijorat hujjatlari tili ham rasmiy ish uslubining asosi sifatida leksik-semantik jihatdan qator xususiyatlarga ega. Ma'lumki tijorat hujjatlari tilining tushunarilik, aniqlik, lo'ndalik, neytrallik, mantiqiy izchillik, rasmiylik xususiyatlari uning asosiy belgilari sanaladi. Bu jihatlar tijorat hujjatlari tilining leksik jihatdan so'z tanlash mezonini belgilabgina qolmay, badiiy bo'yoqdorlik, estetik ta'si ko'rsatish, litota, allegoriya jonlantirish, mubolag'a, argo, jargon va shevaga va turli hududlargagina xos bo'lgan so'zlarni qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu kabi unsurlarni qo'llash juda katta stilistik xatolik bilan birga

tijorat hujjatlari tiliga xos bo‘lgan neytrallik, aniqlik, lo‘ndalik kabi xususiyatlariga putur yetqazadi. Tijorat hujjatlari tili rasmiy uslubga xos barcha xususiyatlarni o‘z ichiga olganligi bilan ham alohida xarakterga ega. Shuni unutmaslik kerakki, tijorat hujjatlari tili adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xosligi, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga egaligi bilan ham farqlanadi.

Tijorat hujjatlari tili leksikasi ijodiy yondashuvlardan xoli bo‘lgan yaxlit til birligi sifatida “sovuuqqon ifodaga “ega yozma nutqdir. Tijorat hujjatlari tilida tayyor nutq qurilmalari (*shu asosda: shunga ko‘ra; ma’lum qilamizki; ni e’tiborga olib; ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar...ga asosan (muvofig); ...uchun, dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin kabi*) qoliplashgan so‘zlar va so‘z birikmalari keng qo‘llaniladi. Modomiki, tijorat hujjatlari tili rasmiy uslub xususiyatlarini o‘zida to‘liq namoyon qilar ekan, avvalo rasmiy uslub va uning ifoda yo‘sini haqida alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Muhiddinova X. ning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida rasmiy uslub haqida quydagicha to‘xtalib o‘tiladi:

Boshqa fundamental uslublardan farqli ravishda rasmiy idoraviy uslubda darak gaplardan keng foydalanilsa, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda buyruq gaplardan foydalaniladi. Bu uslub gramatik jihatdan ilmiy uslubga yaqin turadi. Ma’lumki o‘zbek tilida gapda so‘zlarning ya’ni so‘z bo‘laklarining odatdagি tartibi mavjud bo‘lib unga ko‘ra ega kesimdan oldin, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin, to‘ldiruvchi va hol kesimdan oldin, kesim esa gapning oxirida joylashadi.¹

Rasmiy uslubning tijorat hujjatlari tilida bu tartib qat’iy saqlanadi. Rasmiy yozishma va hujjatlar tilining qo‘llanish doirasi keng va xilma-xil bo‘lganligidan, uning tarkibi ham turlichadir.

Ular leksik-fraziologik va gramatik vositalarni tanlash hamda ishlatish jihatidan bir-biridan qisman farqlanadi. Ammo bu hujjatlarda yagona rasmiy uslub uchun xarakterli bo‘lgan umummiy xususiyatlar mavjud. Misol uchun, qaror va bayonnomalar tilida ta’kidlov qismi bilan qaror qiluv qismlarini o‘rnini

¹ Muhiddinova X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qtuvchi, 2006.-B.197.

alamshirish imkonsiz. Bayon qilingan fikrning izchillik bilan uzviy bog‘langan bo‘lishiga alohida e’tibor qilinadi².

Idoraviy yozishmalarga oid qog‘ozlar, ma’lumotnama, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnomalar qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. Shuni e’tiborga olish joizki, tildagi muayyan nutqiy shtamplar, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllar, idoraviy yozishmalarga oid hujjatlar sanaladi.

Nutqiy shtamplar matnga rasmiylik bo‘yog‘dorlik bilan birga jiddiylik ruhiyatini beradi. Bu kabi matnlar sintaktik qurilishning murakkabligi bilan alohida farqlanadi. Shuni ham inobatga olish joizki, o‘zbek adabiy tilida rasmiy uslub rus tili ta’sirida takomillashgan, ishlatish doirasi kengaygan hamda lug‘at tarkibi yangi so‘z va terminlar bilan boyigan.

Tijorat hujjatlari tiliga qo‘yilgan aniqlik, neytrallik, rasmiylik kabi talablarni bajarishda terminlarni o‘rni katta. Xususan tovarning tannarxi, sifat va miqdoriy xarakteristikasi hamda qator tijoriy ma’lumotlarni aniq ifoda etishda faol ishtirok etadi.

Shuni inobatga olgan holda bizning nazarimizda tijorat hujjatlari tili leksikasini quydagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Terminlar;
2. O‘zlashgan leksika;
3. Umumiste’moldagi leksika;
4. Fiziologik leksika.

Biz bu guruhlashtirishda terminlarni birinchi o‘ringa qo‘ydik, negaki tijorat hujjatlari tilining ekstraliningvistik xususiyatlaridan biri ham aynan neytrallik. Bu xususiyat tijorat hujjatlari tilida bo‘yoq dor, so‘zlashuv va badiiy uslub elementlaridan foydalanmaslik, barcha funksional uslublarda umumiyl bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashni talab etadi. Bu xususiyatlarni umumiyl ifoda etishda terminlar ayni mudao. Shu sababdan ham tijorat hujjatlari tilida terminlardan keng foydalaniлади. Ammo terminlar ham tilning boshqa birliklari singari dinamikdir ular doim ham turg‘un bo‘lavermaydi. Tilning mavjud qarama – qarshiligi ta’siriga

² O‘sha manba

tushadi. Ekstralengvistik omillar asosida ayrim terminologik birliklar o‘zgaradi, iste’moldan chiqadi va o‘rniga yangi terminlar qabul qilinadi. Bu xususida tadqiqotchi B. N. Golovin hamda R.N. Kobraña o‘z tadqiqotida “terminologik portlash”³ deb ta’rif bergen.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhiddinova X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qtuvchi.
2. Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. –Москва, 1987.
3. Ko‘chimov S.N.O‘zbekiston Respublikasi qonunlarinig tili Toshkent, 1997
4. Ko‘chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muommolari. Toshkent, 2004.
5. Турниязов, Н., & Туробов, А. (2017). Тил бирликларининг нутққа ко"чирилиши масаласи билан "бог" лиқ "ба" зи мулоҳазалар. Иностранный филология: язык, литература, образование, 2(3 (64)), 5-9.
6. Туробов, А. (2021). ҚЎШМА СЎЗ-МИКРОСИНТАГМАТИК МУНОСАБАТЛАР ОБЪЕКТИ СИФАТИДА. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).

³ Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. –Москва, 1987.– С 235.

